



Received: October 28, 2021
Accepted: December 23, 2021
Available online: December 25, 2021

Akram Qoʻldoshev

Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti professori
Filologiya fanlari nomzodi
Toshkent, Oʻzbekiston

Akram Kuldashv

Candidate of Philological Sciences, Professor
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: akramkuldashv@gmail.com

TILLARNING ETNOGENETIK JIHATLARINI QIYOSIY OʻRGANISHDA TARIXIYLIK PRINSIPI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada qadimgi german va qadimgi turkiy xalqlar oʻrtasidagi aloqalarning tarixiy manbalarda yoritilishi tadqiq etilgan. Xalqlar oʻrtasidagi munosabatlar tillar aloqasini taqozo etadi. Maqolada eʼtiborga olingan voqealar eramizning II–IX asrlarida Yevropada sodir boʻlgan. Xalqlar buyuk koʻchishi deb nomlangan ulkan tarixiy jarayon Yevropaning etnik va tabiiyki, lingvistik xaritasini qaytadan shakllantirdi.

Skandinaviyalik manbalarda markaziy va shimoliy german xalqlarning katta qismi Yevropaning sharqi va Osiyo qitʼasidan eramizning V–X asrlarida yashagan hududlarga koʻchib kelganligi haqida soʻz yuritiladi.

Xalqlar buyuk koʻchishi jarayoni jahon tarixida anchayin chuqur oʻrganilgan voqea hisoblanadi. Xalqlar buyuk koʻchishining boshlanish va tugash nuqtalari davriy va joʻgʻrofiy jihatdan juda koʻp olimlar, tarixchi, geograf va boshqalar tomonidan tekshirilgan. Shunga qaramasdan, bu voqeani oʻrganish koʻproq Yevropa olimlari tomonidan amalga oshirilgani uchun, tabiiyki, bu jarayonga berilgan baho har safar bir tomonlama boʻlib qolgan.

Yevropaliklar madaniyatlashgan, oʻz sivilizatsiyasiga ega boʻlgan xalqlar yovvoyi (varvar) xalqlarning qurboniga aylangan va mana shu varvarlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni bir necha yuz yil orqaga surganlar. Bu Xalqlar buyuk koʻchishiga beriladigan anʼanaviy – yevropacha baho boʻlib, xitoylik, yapon va boshqa olim va mutaxassislar yevropalik olimlarga ergashgan holda bu fikrga yuz foyiz qoʻshilar edilar. Bu

THE ROLE OF THE PRINCIPLE OF HISTORISM IN ETHNOGENETIC INVESTIGATIONS

ANNOTATION

This article deals with the relationship between the ancient Germanic and ancient Turkic tribes, that is illustrated in historical sources. Interaction between peoples requires contacts between their languages. The events mentioned in the article took place in Europe in the II–IX centuries AD. The historical process, known as the Great Migration of Nations, changed the ethnic and, of course, the linguistic map of Europe.

Scandinavian sources claim that most of the central and North Germanic peoples migrated from Eastern Europe and Asia in the 5th –10th centuries AD.

The process of the great migration of peoples is one of the most deeply studied events in world history. The beginning and end of the Great Migration of Nations have been periodically and geographically studied by many scholars, historians, geographers and others. However, since the study of this phenomenon has been mostly carried out by European scholars, it is natural that the assessment of this process has always been one-sided.

Europeans, as civilized peoples with their highly developed culture, became victims to barbarian peoples, and these barbarians delayed socio-economic development for hundreds of years. This is the traditional European assessment of the Great Migration shared by Chinese, Japanese and other scholars and experts who follow the European scholars and agree with them. No one tried to answer the question of

Xalqlar buyuk ko'chishining ishtirokchilari qaysi tilda so'zlashgan, degan savolga hech kim javob berishga urinmasdi, chunki olinayotgan javob g'arb mafkurasiga to'g'ri kelmas va ular bu kabi javoblardan qochish maqsadida "bu haqda yozma yodgorliklar saqlanib qolmagan" deb qayd etishni o'zlariga hunar qilib olgan edilar. Faqat XX ars oxiri, XXI asr boshlarida Yevropa, Rossiya, Turkiya va Markaziy Osiyo mutaxassislari Xalqlar buyuk ko'chishining yurgizuvchi, harakatga keltiruvchi asosiy kuchi xunlar bo'lib, ular turkiy tillarda so'zlashgan xalqlar ekanligini tushunib yetdilar va uni o'z tarixining bir qismi – eng muhim qismi ekanligini anglaganliklari uchun o'z nuqtai nazar va e'tiborini o'zgartirdilar.

Maqola so'ngida buyuk ko'chishda ishtirok etgan ayrim turkiy va german qabila nomlaridan ayrimlarning etimologik tahlili beriladi.

Kalit so'zlar: til kontakti – aloqasi, german qabilalari, turkiy qabilalar, madaniyalar to'qnashuvi, xududiy konfliktlar, etnik xususiyatlar, etnogenetik jarayonlar, ijtimoiy omillar.

what language the participants in the Great Migration of Nations spoke, because the answer was incompatible with Western ideology, and in order to avoid such answers, they said that "there is no written evidence about this". Only at the end of the 20th and the beginning of the 21st centuries, specialists from Europe, Russia, Turkey and Central Asia realized that the main driving force behind the great migration of peoples was the Huns, and that they were Turkic-speaking peoples. The scholars of the world changed their point of view and focus because they realized that it was the most important part of the problem of the Great Migration of Nations.

The article ends with an etymological analysis of the names of some Turkic and Germanic tribes that participated in the Great Migration of Peoples.

Key words: language contact, Germanic tribes, Turkic tribes, clash of cultures, territorial conflicts, ethnic features, ethnogenetic processes, social factors.

KIRISH

Tilshunoslikda tarixiylik tamoyilini qay yo'sinda, qaysi hajmda, qaysi o'rinda va qaysi til ob'ektlarini tahlil qilishda qo'llash kerak va uning qanday chegaralari bor? Bu kabi savollarga qanday javob berishiga qarab tilshunoslar turli yo'nalishlarga bo'linadi. Bu masala XX asr davomida F.de Sossyur tomonidan ilgari surilgan sinxroniya va diaxroniya dixotomiyasi doirasida ko'p marta muhokama qilindi va ularda turlicha fikrlar bildirildi. Ish hatto shu darajaga yetdiki, sinxron tilshunoslik sistemaviylik (tizimlilik) prinsipiga asoslanadi va diaxron tilshunoslik sistema, atomar yondashuvga asoslanadi, deb tushunish, hatto ko'zga ko'ringan akademik, professor olimlar darajasidan tilshunoslarga ham mansub bo'lgandi [Sossyur F.de, 1977].

Faqat oltmishinchi yillardan keyin tilshunos olimlar diaxron tilshunoslikka ham sistemaviy (tizimli) yondashuv xosligini va bu til ustida olib boriladigan tadqiqotning ilmiyligini ta'minlaydigan yagona mezon ekanligini ko'rsatdi.

Tilshunoslikda tarixiylik tamoyili sistemaviy xarakterga ega bo'lmasa, uning bir-biriga bog'lanmagan turli tarixiy voqea-hodisalarning xronologik jadvalidan farqi bo'lmaydi va shunga muvofiq ilmiy jihatdan hech qanday qimmatga ega bo'lmaydi. Tarixiy voqea-hodisalar o'rtasida sabab-oqibat munosabatlarini topa bilish, ularni tahlil qilish haqiqiy ilmiy tadqiqotning birinchi qadamidir. Tarixiylik tamoyili bu tarixni bilish emas, balki tilning hozirgi holatini uning tarixi orqali bilishni anglatadi. Shu o'rinda bir yirik diaxronist olimning hamon o'z dolzarbligini yo'qotmagan quyidagi fikrini xulosa sifatida keltirish mumkin: "So'zlovchilar o'zlarining tillarida

sodir bo'layotgan o'zgarishlarni sezmaydilar. Har yili yuzlab so'zlar muomalaga kirsana yana yuzlab so'zlar muomaladan chiqib passiv lug'at tarkibiga, ballastga aylanib boraveradi. Nominatsiya jarayonining o'zi ham tarixiy tamoyil asosida ish yuritadi. Masalan, so'zlarning ma'nosi vaqti-vaqti bilan o'zgarib yangi ma'nolar paydo bo'ladi, eskiroq ma'nolari o'lib boraveradi. Bu sinxroniya ichidagi diaxroniyadir. Bu esa tilning mohiyat-e'tibori bilan biz bilgandan ko'ra murakkabroq mohiyat ekanligidan dalolat beradi. "Tilning tarixini bilmay turib, uning kelajagini bilib bo'lmaydi" [Abayev V.I., 1960; 64–70].

German tillari guruhi jahon tilshunosligida eng ko'p o'rganilgan til guruhlaridan hisoblanadi. Agar til guruhi juda ko'p o'rganilgan bo'lsa, unda ochilmagan muammolar qolmagandek tuyulishi mumkin. Ammo amalda unday emas. XIX–XX asrlarda qiyosiy-tarixiy tilshunoslar va keyinroq strukturalistlar tomonidan chiqarilgan ko'plab xulosalar XXI asrga kelganda u yoki bu jihatdan eskirib qoldi va tilshunoslikning istiqboldagi taraqqiyotiga to'siq bo'la boshladi. Shuning uchun sistemaviy yondashuv avvalgi ayrim xulosalarni qayta ko'rib chiqish zaruriyatini keltirib chiqardi [Bongard-Levin G.M., Grantovskiy E.A., 2001; 106–107].

German tillarining qadimgi paytdagi mavjudlik holatlari, ularning boshqa til guruhlariga va oilalari bilan kontaktlari masalasi, tarix, arxeologiya bo'yida eng yangi yutuqlari til tarixini o'rganishga tadbiriq etildi, tilshunoslikdagi ayrim hukmlarning qayta ko'rib chiqish zaruriyatini vujudga keltirdi.

Xunlar turkiy tillarda so'zlovchi xalqlar bo'lib ular haqidagi dastlabki yozma manbalar eramizdan avvalgi III asrga tegishlidir. Eramizdan avvalgi I asrda xunlar G'arbga ko'chishini boshladi va 300 yil o'tgach, o'zlariga ko'plab qabilalarni biriktirgan holda xunlar qabila ittifoqini tuzib Markaziy Yevropa hududlarigacha yetib keldi. Bu narsa Yevropada III–VIII asrlarda sodir bo'lgan Xalqlar buyuk ko'chishining boshlanganligidan darak berardi.

Xunlar tili haqida Sharqiy va Markaziy Yevropa, Oltoy, Shimoliy Xitoy, Sharqiy Turkiston va boshqa hududlarda topilgan yozma yodgorliklarda saqlanib qolgan otlar, elementar matnlar va ayrim ikki tilli glossalar berilgan bo'lib, ularni o'rganish xunlar tili haqida ma'lumot beradi.

Keyingi paytlari tillar tarixi bilan shug'ullanishga kirishgan ayrim mutaxassislar va olimlarda N.Ya. Marr davrida yo'l qo'yilgan xatolar takrorlanmoqda va boshqa tilshunoslar tomonidan bu narsa to'g'ri tahlil va to'g'ri xulosalar tarzida qabul qilinmoqda [Marr N.Ya., 1935; 12-20].

TADQIQOT USULLARI

Quyida biz tilshunoslikda tarixiylik tamoyilini ko'plab tadqiqot olib borishda tilshunoslar tomonidan yo'l qo'yilayotgan asosiy xato va kamchiliklar haqida gapirib o'tamiz.

1. Tilshunoslikda tarixiylik tamoyilini qo'llashning nazariy asoslarini egallamaganlik holati boshlovchi tilshunos olimlar ishlarida ko'p yo'l qo'yiladigan xatolar sirasiga kiradi. Masalan: D.Aytmuratov, R.G. Axmetyanov [Aytmuratov D., 1986; Axmetyanov R.G., 1978].

2. Izlanish ob'ekti yetarli darajada o'rganilmasdan turib, juda yirik va salmoqli xulosalar chiqarish amaliyoti tilshunoslar ishlarida ko'p ko'zga tashlanadigan kamchiliklardan hisoblanadi [Bensing I., 1986; Dyorfer G., 1973].

3. O'rganilayotgan til tarixi faktlariga apriorizm nuqtai nazaridan yondashish va oqibatda noto'g'ri hukmlarni tadqiqot uchun dastlabki nazariy asos sifatida qabul qilish [Pulliblenk E., 1986; Dyorfer G., 1973].

4. Tillar tarixiy taraqqiyotining turli davr yoki faktlarini tahlil qilishda yoki yakuniy xulosa chiqarishda mantiqiy qarama-qarshiliklar mavjud [Kloson Dj., 1986; Bensing I., 1986; Axmetyanov R.G., 1978].

5. Turli davrlar faktlarini izchil berishda voqea-hodisalar, tarixiy jarayonlar umumiy ketma-ketligini buzish, zamonda lokalizatsiya qilish jaryonini buzish eng keng tarqalgan kamchiliklardan hisoblanadi [Suleymanov U., 1981; Adzhi M., 2007; Aytmuratov D., 1986; Marr N.Ya., 1935].

6. Izlanish ob'ektida uchramaydigan belgini berish orqali tadqiqotning ilmiy jihatdan asoslanganlik darajasini pasaytirish [Abaev V.I., 1960; Adzhi M., 2007].

7. Keyingi paytlarda etnogenetik tadqiqotlarda ko'p uchraydigan narsa, bu – dunyoviy va diniy bilimlarni aralashtirib yuborishdir. Unga ko'ra, tadqiqotchida chinakam ilmiy tahlil uchun material yoki nazariy asos yetishmay qolsa, darhol Injilga yoki Qur'oni karimga murojaat qiladi va u yerdan najot topishga harakat qiladi [Turon U., 1995].

V.F. Gumboldt fikrini rivojlantirib taniqli olim A.Sodiqov yozganidek, "Til insoniyat jamiyatining tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratgan barcha tarixiy boyliklarini mujassamlashtirgan va avloddan avlodga o'tib boradigan konkret-tarixiy normadir" [Sodiqov A., 1979; Gumboldt V.F., 1983].

Tillarni tahlil qilishda tarixiylik tamoyilini qo'llash va uning ahamiyati, zaruriyati, hozirgi holati va yo'lga qo'yilayotgan kamchiliklar tahlili quyidagi xulosaviy fikrlarni aytish imkonini beradi:

1. Tillarni tahlil qilishda tarixiylik tamoyilini qo'llash mantiqiylik tamoyili kabi katta ahamiyatga ega va bu lingvogenetik tahlil tillar taraqqiyotining asosiy qonuniyatlari, bosqichlari va ayrim tafsilotlarini bilish imkonini beradi.

2. Tarixiylik tamoyilini qo'llash ilmiy jihatdan chuqur nazariy baza, tegishli metod va tartiblarni izchil amalga oshirish yetarli til materialini tahlil qilgandagina belgilangan vazifani bajara oladi.

3. Tarixiylik tamoyilini qo'llash turli tilshunoslar o'zlari tegishli bo'lgan maktab, yo'nalishi va tendensiyalar doirasida bo'lishi tabiiy holatdir va tilshunoslik tarixi bu fikrni tasdiqlab turibdi.

4. Keyingi 15–20 yil ichida tarixiylik tamoyilini vulgar yo'l bilan tushunish, tarixiy faktlar tahlilini o'z qiziqishlariga bo'ysundirgan holda olib borish konsepsiyasiga u qadar to'g'ri kelmaydigan faktlardan ko'z yumish, anaxronizm (ya'ni zamon chegaralarini buzish) va axronizm (tarixni butunlay inkor qilish) tendensiyalari ham paydo bo'ldiki, ularga chuqur ilmiy tahlil asosida to'g'ri baho berish hozirgi paytda lingvogenetik tahlil bilan shug'ullanadigan olim va mutaxassislarining birinchi darajali vazifasidir.

Tilshunoslar tomonidan e'tirof etilganidek, "Tilshunoslik tarix fani bilan bog'liqdir. Til qabila hamda millat tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'lgani uchun insoniyat jamiyatining tarixi tilda bevosita o'z mavqeini topadi" [Sodiqov A.S., 1979, 10; Kuldasheva Sh.A., 2021].

NATIJA VA MULOHAZALAR

Hind-yevropa tillari oilasining eng keng tarqalgan til guruhlaridan bo'lgan german tillari o'z funksional ko'lamining kengayib borishi bilan strukturaviy jihatdan ham rivojlandi. Qadimgi davrdagi german tillari rivojlangan sintetizmga asoslangan flektiv tillar edi. Boshqa grammatik strukturaga ega bo'lgan tillar bilan uzoq davom etgan kontaktlar natijasida german tillari grammatik strukturasi soddalashuv jarayoni rivojlana bordi. Ayrim tillarda otlarning kelishik tizimi parchalandi, fe'llar turlanishi ham soddalashdi. Ayrim German tillarida esa sintetizm sekin-asta analitizmga joy bo'shatib bera boshladi.

Yuqorida aytilgan til kontaktlari qadimgi german va qadimgi turkiy tillar davrida boshlandi va bu narsa har ikki til guruhi vakillarining tilida katta o'zgarishlarning sodir bo'lishiga olib keldiki, bu o'zgarishlar hind-yevropa tillar oilasining boshqa guruhlariga mansub tillarda kuzatilmaydi. Bu holat ham tillarda sodir bo'lgan o'zgarishlarning ana shu kontaktlar bilan izohlanishini asoslaydi.

Qadimgi german tillarida urg'u erkin bo'lgan va urg'u so'zining har qanday bo'g'iniga tushavergan. Keyinchalik urg'u birinchi bo'g'inga ko'chdi. Bunga sabab deb, Xalqlar buyuk ko'chishi natijasida germanlarning turkiy qabilalar bilan kontaktga kirishishini ko'rsatamiz. Bunday deyishga asos shuki, turkiy tillar german tillar bilan kontaktga kirishganda, unda birinchi bo'g'inda muhim dinamik urg'u mavjud edi. German xalqlariga birinchi bo'g'indagi dinamik urg'u turkiylar german tillarini qabul qilib ona tilidek so'zlashib yurgan paytlari sodir bo'ldi. Turkiylar o'z urg'usini german tillariga ko'chirdi va german tillaridagi erkin urg'u german xalqlarining turkiy tillarni qabul qilib, unda so'zlasha boshlagan paytlari sodir bo'ldi.

Qadimgi german va turkiy qabilalar orasidagi aloqalar Yevropada sodir bo'lganligi bois, Yevropada yozilgan manbalarda ular o'z aksini topgan. O'rta asrlarda Skandinaviya va Markaziy Yevropada yozilgan manbalarda german va turkiy xalqlar o'rtasidagi aloqaning juda intensiv bo'lganligidan darak berar va germanlar o'zlarini Osiyodan chiqqanligini va qadimgi turkiylarga yaqin qarindosh ekanligini ta'kidlaganlar.

Qadimgi germanlar va qadimgi turkiylar runik yozuvdan foydalangan ikki xalq bo'lib, ulardan boshqa hech qaysi xalq runik yozuvdan foydalanmagan. To'g'ri, keyingi paytlarda slavyan runalari haqida ham yozishmoqda, ammo bular yetarli asosga ega emas.

Bas shunday ekan, tabiiy savol tug'iladi, kim kimdan o'rgangan? Germanlar turkiylardanmi yoki turkiylar germanlardanmi?

Xalqning yosh yoki qadimiyligini hisobga olsak, bu narsa qadimgi turkiylarga tegishli bo'ladi. Chunki eramizdan avvalgi III asrga oid turkiy tillarda (xunlar tilida) yozilgan yozma yodgorliklar runik yozuvda amalga oshirilgan. German runalari esa

nisbatan yoshroq ular eramizning II–III asrlariga tegishli. Xuddi mana shu davrda germanlarning turkiylar bilan uchrashuvi sodir bo‘lganligini inobatga olsak, masalan, o‘z-o‘zidan yechim topadi.

German tillari grammatik strukturasida turkiy tillar bilan bo‘lgan kontaktlar natijasida innovatsiyalar sifatida nemis va ingliz tillaridagi ablaut tizimidagi farqlarni ham aytib o‘tishini lozim topdik.

Ablaut german tillari kuchli fe‘llarida xos hodisa hisoblanadi. Ablautning ikki turi bor:

- 1) faqat ichki fleksiya ablaut;
- 2) ablaut + affiksatsiya.

Ingliz tilida ablautning birinchi turi, ya‘ni faqat ichki fleksiya iborat ablaut kuzatiladi. Masalan: *foot>feet; tooth>teeth; mouse>mice*.

Nemis tilida esa ikkinchi til, ya‘ni: umlaut+affiksatsiya kuzatiladi. Masalan: *Gast* (mehmon) – *Gäste* (mehmonlar), *wolf* (bo‘ri) – *wölfe* (bo‘rilar).

Aksincha, qo‘shimcha qo‘shilganda ingliz tilida o‘zakdagi unli o‘zgarishi kuzatilmaydi: *book – books, ox – oxen*.

Nemis tilida esa bu holda ham ichki fleksiya kuzatiladi.

M: *Buch* (kitob) – *Vüsher* (kitoblar).

Bizningcha, affiksatsiyaning funksional aktivligi turkiy tillar grammatik strukturasida ta‘sirida ro‘y bergan. Bu narsaning ingliz tilida sodir bo‘lmaganligiga sabab angllar, sakson, yut va frizlarning Britaniya orollariga juda erta, ya‘ni V asrdayoq migratsiya qilganligi va turkiy qabilalar bilan kontakt juda qisqa davom etganligi bilan izohlanadi.

Qit‘ada qolgan germanlar, ayniqsa, nemislar Xalqlar buyuk ko‘chishining katta qozonida eng ko‘p qaynagan xalqlar bo‘lgani uchun aynan nemis tilida yuqoridagi kabi xususiyatlar qabul qilingan va rivojlangan. “u”dan oldin “w”ning paydo bo‘lishi ham, mas: *u:n>wu:n>wun>wAn; ulfile>wulfila* turkiy tillarda ham kuzatiladigan hodisalar *un>bun, o:t>wo:t* [o‘t>vo‘t] [Qo‘ldashev A., 2020; 178-180].

Bularning barchasi xalqlar buyuk ko‘chishi davrida german va turkiy qabilalar o‘rtasidagi kontaktlarning qanchalik chuqur bo‘lganligini va ular hatto til strukturasining turli qatlamlarida ham o‘z aksini topganligini ko‘rsatadi.

Xalqlar buyuk ko‘chishining Yevropa tillari strukturasiga ko‘rsatgan ta‘sirining sotsiolingvistik, areal va dialektologik jihatlarining tizimiy tahlili bizga quyidagilarni aytishga imkon beradi.

Ingliz tilining shakllanishi boshqa har qanday german tillari yoki boshqa hind-yevropa tillari kabi va umuman boshqa oila vakillari bo‘lgan tillar shakllanishi kabi uzoq muddatli jarayon va u o‘z ichiga turli katta-kichik, ichki-tashqi, davomli-bir zumli kabi xarakterdagi omillarning doimiy ta‘siri ostida bu tilda so‘zlashuvchi odamlar individual va jamoaviy psixologiyasi, intellektual va kulturologik saviyasi, sotsiolingvistik vaziyatlar talablariga muntazam va izchil ravishda javob berish va kezi kelganda ularga mos ravishda katta va kichik o‘zgarishlarni amalga oshirish natijasida muayyan bir til makonida kechdi.

Tillar tarixini o‘rganish shu tilda so‘zlashadigan xalq tarixini o‘rganishdir. O‘z

navbatida xalq tarixini o'rganish uchun uning tarixini o'rganish kerak. Ammo bu yerda absolyut mos tushish hech qachon kuzatilmaydi. Bir tilda asrlar o'tishi bilan turli etnoslar, milliy, diniy va o'rni kelsa, irqiy jihatdan turlicha odamlar gaplashgan bo'lishi va aksincha, bir xalq (etnos, millat) o'z tarixi davomida turli oilaga mansub bo'lgan tillarda so'zlashgan bo'lishi ham mumkin. Shularni inobatga olgan holda etnogenetik tadqiqotlarda arxeologik yodgorliklar, moddiy madaniyat namunalari qanchalik rol o'ynasa, lingvistik material ham shunchalik rol o'ynaydi. Ba'zi jihatlari bilan balki ko'proq rol o'ynashi mumkin.

Xalqlar o'rtasidagi aloqlar tillar o'rtasidagi kontaktlarni taqozo etadi. Xalqlar o'tasidagi kontaktlar dinlar, konfessiyalar, mazhablar o'rtasidagi aloqalarni taqozo etadi. Bu narsa o'tmishda ham muhim bo'lib kelgan bo'lsa, hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Diniy omil tillar tarixida ayrim holatlarda shevalarni bir tilga birlashtiruvchi faktor sifatida namoyon bo'lsa, ayrim paytlari yonma-yon joylashgan hududlar (qishloq, shahar yoki graflik) aholisi dini, mazhabi turlicha bo'lganligi bois turli tillarni tanlab, o'sha tillar pirovardida o'sha xalqning etnik umumiyligini bildiruvchi omillarga aylanib qolganligi ham sir emas.

Xalqlarning buyuk ko'chishi Yevropaning etnik va lingvistik xaritasini tubdan o'zgartirib yubordi. Butun Yevropada muloqot tili bo'lgan kelt tillari sekin-asta o'z pozitsiyalarini yo'qota borib, oxir-oqibatda Britaniya orollarining chekka hududlaridagina saqlanib qoldi. Rim imperiyasining tili bo'lgan lotin tili ham o'z pozitsiyalarini asta-sekin yo'qota borib oxiri bir necha milliy tillarga parchalanib ketdi.

Vizantiyaning tili bo'lgan grek tili sharqiy Yevropada ayrim pozitsiyalarini saqlab qolgan bo'lsa-da, avalgi shonu shuhrati, ko'lamini saqlab qola olmadi.

German qabilasi bo'lgan franklar o'z tilini yo'qotib, roman tilini qabul qildi. Mamlakatga o'z nomini bergan bo'lsa-da, o'zga xalq tilini o'ziga qabul qildi. Germanlar hukmronlik qiladigan franklar yeri endi rimliklarning avlodlariga tegishli hududra aylandi.

Xalqlar buyuk ko'chishida Yevropa lingvistik xaritasining ajralmas qismi bo'lib turkiy tillar sahnaga chiqdi. Turkiy tillar V–IX asrlarda Markaziy Yevropa – Pannoniya, Dakiya, Janubiy Germaniya, Boltiqbo'yi hududlarida asosiy muloqot tili bo'lib xizmat qildi.

Xalqlar buyuk ko'chishining natijalaridan yana biri – Markaziy Yevropaga ugor-fin oilasi vakili bo'lgan venger tilining kirib kelishidir. Venger tili X asrning o'rtalarida Markaziy Yevropaga kelib o'troqlashgan bo'lsa-da, u yerda ulargacha yashagan aholi xunlar tilining ta'siriga uchradi va bu turkiy substrat venger tili fonetikasi grammatik qurilishini shu qadar o'zgartirib yubordiki, venger tili o'zining oilasidagi ko'plab tillarga butunlay o'xshamay qoldi.

Xalqlar buyuk ko'chishi jarayoniga jalb etilgan yana bir etnik butunlik, bu – slavyan xalqlaridir. Ular xalqlar buyuk ko'chishining eng faol komponentlaridan bo'lib, Sharqiy Yevropa – Qora Dengiz bo'ylari, Gretsiya, Bolqon yarim orolidagi etnik va lingvistik taraqqiyotning kelajagini belgilashda katta rol o'ynaydi.

Germanlar tomonidan zabt etilgan, bosib olingan va asrlar davomida hukmronlik

qilingan barcha hududlar kabi Galliya va Italiyada bu jarayon buzg'unchilikka yo'g'rilgan edi. Ayniqsa, langobardlar bosqini Italiya aholisiga katta mushkulotlarni olib keldiki, ularning oqibatlarini yengib, qayta tiklanish ko'p og'ir kechdi. Siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va madaniy sohalarida tushkunlik, parchalanish va turg'unlik hukm surdi. Faqatgina bir narsa turg'unlikni bilmadi, doimo rivojlanishda bo'ldi. U ham bo'lsa tildir. Rim imperiyasining qulashi lotin tilining o'lishiga va bu tilning o'limi bir qancha yangi tillarning paydo bo'lishiga olib keldi.

781-yili Italiyaga bostirib kirganidan yetti yil keyin Buyuk Karl Rimda o'z o'g'li Karlomanni Pipin ismi bilan Italiyaning qiroli deb e'lon qildi. Qirollik fuqarosi endi rimliklar deb emas, balki italyanlar deb atalar, mustaqil xalq sifatida jahon arenasiga chiqqan va sobiq Rim imperiyasida yashagan sobiq galliyaliklar va iberiyaliklar ham edi. Rimlik degan nomni tashlab, fransuz va ispan degan xalqqa aylandi [Sergiyevskiy M.V., 1954; 151–165]

German tillari Fransiya, Ispaniya, Italiya va boshqa roman tillarida so'zlashuvchi hududlarda til sifatida unutildi, muomaladan chiqdi, ammo u tillarning elementlari fonetik, leksik qatlamlari birliklari paydo bo'lgan va rivojlanayotgan tillar strukturasidan muhim joy egalladiki, endi ularni keyingi qirollarning istak-xohishi tildan quvib chiqara olmasdi.

Xalqlar buyuk ko'chishi natijasida yuzaga kelgan tillar kontakti german va turkiy tillari fonetik strukturasida ayrim o'zgarishlarga olib keldi. Bularga sabab – turkiylarning vaqti kelib o'z tillarini unutib german tillarini qabul qilishi va germanlarning, o'z navbatida, turkiy tillarni qabul qilishi natijasida o'zga tillarni eski artikulyatsion bazada talaffuz qilishi har ikki til fonetik strukturasiga sezilarli ta'sir qildi. Tillarda assimilyativ o'zgarishlar, unlilar cho'zilishi, tovushlarning tushib qolishi, tovushlarning paydo bo'lishi kabi hodisalar sodir bo'ldi.

Xalqlar buyuk ko'chishi oqibatida sodir bo'lgan til aoqalari roman tillariga german tillaridan ko'plab so'zlarning, shu jumladan, antroponim va toponimlarning kirib kelishiga sabab bo'ldi. Bundan tashqari, german tillaridagi so'z yasash mexanizmlari roman tillariga kirib keldi va samarali modellar sifatida ko'plab yangi so'zlarning yasalishiga imkon berdi va shu yo'l bilan roman tillari lug'at tarkibini boyitishga katta hissa qo'shdi.

German tillari va turkiy tillardagi so'z morfologik strukturasini o'rganish shu narsani ko'rsatdiki, har ikki til guruhidagi o'zaklar o'z guruhi va oilasi uchun umumiy bo'lgan o'zaklar bo'lib boshqa oila shaklida kuzatilgan o'xshash strukturaviy tiplarga kelib chiqish jihatdan ham yoki qabul qilinish nuqtai nazardan ham aloqador emas. Har ikki guruh vakillarida mos ravishda umumhindeyropa va umumoltoy o'zaklar mavjud va funksional jihatdan faol hisoblanadi.

Yevropa lingvistik xaritasining shakllanishida xalqlar buyuk ko'chishi juda katta rol o'ynaydi. Avvallari katta mavqega ega bo'lgan tillar va tillar guruhlari o'z lingvistik makonlarini yo'qotdilar va cheklangan hududlarda kamsonli so'zlovchilar tomonidan uslubiy jihatdan belgilangan kommunikativ aktlarda qo'llaniladigan til yoki shevalarga aylanib qoldi. German tillari esa o'z foydalanish ko'lamini keskin kengaytirdi va bundan tashqari, roman tillarining lug'at tarkibini boyitishda juda katta

xissa qo'shdi. Natijada minglab german so'zlari fransuz, ispan, italyan va boshqa roman tillariga o'zgargan yoki o'zgarmagan shaklda va ma'noda kirib keldi.

German tillari bilan turkiy tillarning o'zaro aloqalari faqat fonetik va leksik qatlamda emas, balki grammatik ma'noni ifoda etish darajasida ham kuzatildi. Ayrim grammatik formativlar turkiy tillardan german tillariga kirib kelgan bo'lsa, aksincha, ayrim formativlar turkiy tillarga german tillaridan kirib keldi.

Turkiy tillarning o'zi ichida ayrim jarayonlar german tillari ta'sirida boshlandi va keng rivojlan ketdi va buning oqibatida qaysi til guruhi birlamchi ekanligini aniqlash, ya'ni innovatsiyaning manbai qaysi, retseptori qaysi ekanligini aniqlash qiyin bo'lib qoldi. Masalan, rotatsizm kuchsiz – fe'llarda qo'llaniladigan dental suffiks, ramkali qurilma va xokazolarga "egalik" qiluvchi til guruhini aniqlash anchayin mushkul.

German va turkiy tillarida umumiy belgilarning rivojlanishi, ya'ni ko'plik son uchun *-s-* formativi, o'tgan zamon uchun *-t, d* formativining ishlatilishi va egalikni bildiruvchi *-vositalar -n* larning V–VII asrlarda paydo bo'lganini nazarda tutsak, bularning xalqlar buyuk ko'chishining mahsuli ekanligiga ishonch hosil qilish qiyin emas.

Demak, XX asr va XXI asr boshlariga kelib xalqlar tarixi, millat, til va ularning tarixi masalasida butunlay yangi qarashlar, nazariyalar paydo bo'ldiki, ular hozirgacha mavjud fikrlarga ko'p jihatdan mutlaqo muvofiq kelmaydi. Bir millat – bir til yoki bir etnonim – bir xalq degan fikrlarning noto'g'riligi ma'lum bo'ldi. Avvalgi sodda izohlarning mohiyatni u qadar to'g'ri ochib bermasligi ko'rinib qoldi. Masalan, Xitoy avval qabul qilinganidek, 3-4 ming yildan buyon etnik jihatlarning o'zgarmagan, tashqi ta'sirlardan chetda qolgan etnik butunlik sifatida emas, balki bir necha etnik qatlamlarning ketma-ket izchil almashinuvi natijasida yuzaga kelgan etnik birlik (xalq, millat nomi bu yerda rol o'ynamaydi) namoyon bo'lishi isbotlandi. Katta millatlar – rus, nemis, ingliz, fransuz va boshqalar haqida ham xuddi shu fikrni bildirish mumkin. Bu borada turkiy xalqlar haqida esa, gapirmasa ham bo'ladi.

Til va millat tushunchalarining o'zaro munosabatlari haqida ham shu fikrlarni bildirishimiz mumkin. Bir tilda bir millat emas, ketma-ket tarixiy izchillikda yashagan bir necha millat (yoki elat, el, qabila, etnos kabi birliklar) gaplashgan yuqoridagi sodda sxemaning noto'g'ri ekanligini bildiradi. German xalqlarining uch ming yillik tarixi ham yuqoridagi tezisni isbotlab turibdi. Nogerman xalqlar: rimliklar, slavyanlar, keltlar va ayrim turkiy xalqlar german tillarini o'z ona tillari sifatida qabul qilishdi va keyinchalik o'zlarining boshqa etnik butunlikdan rivojlangan xalq ekanligini unutib yubordilar.

Bu o'rinda asosiy hal qiluvchi omil bo'lib xalqning iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy-madaniy jihatdan g'olib xalqqa bog'liqligi xizmat qiladi. Chunki yangi ijtimoiy tuzum yangicha munosabatlarni va mana shu munosabatlarni yo'lga qo'yishning yangi kodi – vositani talab qiladi. Bu yangi kod hukmron millat, qabila yoki xalqning tilidir. Bu til kommunikatsiyani yaxshi amalga oshirsa, oxir-oqibatda bu ikkinchi xalqning ham asosiy yoki ona tiliga aylanib qoladi. Bu kontakt – aloqalarning davomiyligiga ham bog'liq. Agar ikki etnos: hukmron va tobe etnoslar uchun muloqot yetarli darajada uzoq davom etmasa, ya'ni bu jarayon bir avlod umri ichida kechsa, tilning funksional

ko‘lamida hech qanday o‘zgarish sodir bo‘lmaydi. Agar kontaktlar davomiy ikki-uch avlod davriga to‘g‘ri kelsa, kodning o‘zgarishi sodir bo‘ladi. Xunlar tilining german va roman tillari ustidan g‘olib chiqqan olmaganiga har ikki xalqlar o‘rtasidagi etno-madaniy saviyaning turlicha bo‘lganligi birinchi sabab bo‘lsa, ikkinchi sabab – assimilyatsiya uchun vaqtning yetarli bo‘lmaganligidir.

Yevropadagi iqtisodiy, siyosiy, harbiy vaziyatning bir maromda bo‘lmaganligi, doimiy urushlar, aholi tarkibining tez o‘zgarishi til vaziyatining murakkabligi aholiga xunlar tilini asosiy muloqot tili sifatida qabul qilishiga imkon bermadi.

Xalqlar buyuk ko‘chishining Yevropa til vaziyati va german tillariga ko‘rsatgan ta‘sirini ikki tomonlama ekanligini aytib o‘tish mumkin.

1. Ekstralingvistik ta‘sir.

2. Intralingvistik ta‘sir [Qo‘ldashev A., 2010; 9-15].

Ekstralingvistik jihatdan xalqlar buyuk ko‘chishi Yevropa tillarining shakllanishiga shunday ta‘sir ko‘rsatdi:

a) qabila tillarining birlashib xalq tillariga aylanishiga olib keldi;

b) siyosiy-harbiy jihatdan dominant qabilalar tillari o‘sha xalqlar orasida yetakchi tillarga aylandi;

v) german qabilalari tillarining milliy tillarga qarab rivojlanishi ularning ko‘chish natijasida qaysi hududga borib qolganligiga bog‘liq bo‘ldi. Agar qabila xalqlar buyuk ko‘chishi natijasida rivojlangan sivilizatsiya va kuchli davlat tuzumiga ega bo‘lgan hududlarga borib qolgan bo‘lsa, u qabila o‘zidan ko‘ra rivojlanganroq madaniyat, urf-odat va tilni qabul qildi. Rim imperiyasi va Galliyaning janubiy-markaziy hududlaridagi german qabilalarining tili roman tillariga o‘z pozitsiyalarini berib qo‘ydi va german tillarida so‘zlashuvchi xalqlar roman tillarini qabul qildilar.

German tillarida so‘zlashuvchilar konsentratsiyasi kuchliroq bo‘lgan hududlarda esa son va siyosiy-harbiy jihatdan ustun qabila – germanlar o‘z tilini saqlab qoldi. (Shimoliy, Markaziy Yevropa) Bu yerlarda german tillari shakllandi.

G.Paul o‘zining mashhur “Prinsipy istorii yazyka” (“Til tarixi prinsiplari”) asarida tilni tarixiy rivojlanish nuqtai nazaridan tadqiq qilishning asosiy tamoyillarini ishlab chiqishni o‘z oldiga vazifa qilib belgilagan bo‘lsa-da, bu asarda tamoyillar hech bo‘lmasa, umumiy bir shaklda keltirilgan joyni topmaymiz. Juda katta til materialining chuqur tahlili asosida yozilgan bu asar ilmiy jihatdan juda puxta va pishiq, shu bois u mana yuz yildan ortiqroq vaqt ichida (anikrog‘i 130 yil) tilshunoslar uchun juda zarur manba, nazariy asos bo‘lib kelmoqda [Paul G., 1960].

Xalqlar buyuk ko‘chishi natijasida Yevropada etnogeopolitik tanglikning yuzaga kelishi bu yerda shu davrda yashab turgan barcha etnoslarning taqdiriga, shu jumladan, Yevropa shimolida, Skandinaviya yarim orolida yashab kelgan german qabilalarining hayotiga ham bevosita va bilvosita ta‘sir qildi. Populyatsion o‘sish natijasida mahalliy geografik hudud normal hayotiy faoliyat uchun muhit yaratib bera olmaganligi sababli aholining “ortiqcha” qismi janubga, qit‘aga migratsiya bo‘lar edi. Skandinaviyadagi germanlar orasida hozirgacha saqlanib qolgan qadimiy an‘ana mavjud va unga ko‘ra, oilada tug‘ilgan katta o‘g‘il ota-onasi bilan birga yashab qoladi, qolganlari esa, ular nechta bo‘lishining farqi yo‘q, boshqa yerga borib o‘zi uchun “vatan” topishi, ya‘ni

yashash joyi va faoliyat turini tanlashi kerak bo‘ladi. V–VII asrlarda esa ayni shu “ortiqcha” aholi uchun Yevropada joy qolmadi va bu yerda qaynayotgan migratsion jarayonlar ichida ular etnik umumiyligini yo‘qotish xavfi tug‘ildi. Natijada shimoliy germanlar o‘zlari uchun hayotiy makonni Janubdan emas, balki Sharq yoki G‘arbdan qidirishga majbur bo‘ladilar. Sharqqa ketgan germanlar “varyaglar” nomi bilan hozirgi Rossiyaning shimoliy hududiga kelib o‘rnashgan bo‘lsalar, G‘arbga ketgan germanlar Farer orollari va Islandiya, Grenlandiya va boshqa orollardan makon topdilar. Tarixiy manbalarda yozilishicha, o‘sha davrda “viking”lar deb nomlangan bu xalqlar Shimoliy Amerikagacha yetib borganlar. Shimolda ro‘y bergan ushbu migratsiyaning barcha ishtirokchilari qadimgi norveg tilida yoki bo‘lmasa bu tilning ikkinchi nomi – qadimiy shimol tilida (old norske) so‘zlashar edilar. VI–X asrlarda bu orollarga kelib o‘troqlashib, qit‘adagi jarayonlardan to‘la izolyatsiyada yashagan bu xalqlar tili o‘ziga xos taraqqiy etishi natijasida ulardan uchta til – norveg tili, island tili, farer tili paydo bo‘ldi va rivojlandi [Vessen E., 1949].

III–VIII asrlarda sodir bo‘lgan Xalqlar buyuk ko‘chishi Yevropa tarixida katta voqea hisoblanadi va bu asosiy jarayon yetti subjarayonni o‘z ichiga oladi:

- 1) Yevropa va Osiyo geografiyasida ro‘y bergan sezilarli klimatik o‘zgarishlar.
- 2) Yevropa, Shimoliy Afrika va Yaqin Sharqda quldorlik tuzumi tanazzulga yuz tutishi;
- 3) etnik jarayonlardagi rivojlanishning nomutanosibligi kuzatildi;
- 4) etnoslararo divergensiya va konvergensiya hodisalari kuchaydi;
- 5) jamiyatlar iqtisodiy munosabatlari rivojlanishida muayyan siljishlar kuzatildi;
- 6) aniq tendensiyaga aloqador bo‘lmagan subjarayonlar kechdi;
- 7) qabila tillari xalq, elat tili hisobiga rivojlanib, yozuvga ega bo‘lgan tillar soni ko‘paydi.

Bir tilda mavjud bo‘lgan til shakli boshqa yangi element – innovatsiyalar sifatida paydo bo‘lishi va adaptatsiya jarayonini boshidan kechiruvda shu narsa kuzatiladiki, yangi hududga odamda innovatsiyaning yakuniy yoki oraliq shakllari ko‘chib o‘tadi. Yangi elementning yangi hududda assimiylatsiya jarayonini kechishida yangi til birligi bilan eski til birligi o‘rtasida kompromiss holati yuzaga kelishi mumkin.

Muayyan bir vaqt mobaynida alohida olingan bir shevada eski va yangi shakllar bir vaqtda mavjud bo‘lishi mumkin. Bundan kelib chiqadiki, boshqa turli innovatsiya kabi fonetik innovatsiya ham avval alohida individlar tomonidan qabul qilib olinadi va til kollektivining boshqa barcha a‘zolariga tarqatiladi.

Innovatsiyaning tarqalishi alohida so‘zlar vositasida amalga oshiriladiki, ular mazkur tovush transformatsiyasi uchun model vazifasini bajaradi. Ammo shunga qaramay, ayrim so‘zlar bu o‘zgarish, ko‘chishga jalb etilmay qolishi mumkin. Bunday holatlar – reliktlar deb ataladi.

Innovatsiyalarning til makonida tarqalishining asosiy sababi bu tilning muayyan bir hududda ijtimoiy-siyosiy jihatdan mavqega ega ekanligi yoki ega emasligidadir.

Innovatsiyalarning bir til jamoasidan ikkinchisiga o‘tishining uch bosqichi bor.

a) birinchi bosqichda o‘zida innovativ shaklni jo qilgan (tarkibida innovatsiya bo‘lgan) alohida olingan, yakka so‘zlar, bir tildan boshqa tilga qabul qilinadi;

b) ikkinchi bosqichda ayrim soʻzlovchilar, yarim ongli ravishda, eski talaffuz shakllarini yangi shakllariga qiyoslagan holda bu innovatsiyani boshqa soʻzlarga, yaʼni leksik tarkibining barchasiga tarqatadi;

v) uchinchi bosqichda esa yangi talaffuz butun til jamoasi tomonidan olinadi va yagona talaffuz normasiga aylanadi.

Tillar dialektlarida mavjud boʻlgan farqlar bu tilda soʻzlashuvchi xalq hali boshqa hududlarga koʻchib, tarqab ulgurmay yagona bir hududda yashayotgan paytidayoq rivojlanish jarayonini boshdan kechirayotgan boʻladi. Toʻlqin nazariyasi bu tillar tarixiga toʻgʻri nazar tashlashni oʻrgatibgina qolmay, til differentsiatsiyasi asosiy qonun va bosqichlari hamda tillarning qarindoshligini aniqlashga yordam berishi mumkin. Lekin migratsiya nazariyasiga qarama-qarshi oʻlaroq, tillar qarindoshligini inkor qilmaydi. Hind-Yevropa tillari tarixida koʻplab holatlar mavjudki, unga koʻra migratsiya (koʻchish) jarayonlari tufayli xalqlar oʻz til guruhlarini, hatto til oilalarini ham oʻzgartirib yuborgan. Yaqin tarixda kuzatilgan holatlar, yaʼni franklarning romanlashuvi, romanlarning germanlashuvi, germanlarning slavyanlashuviga – chexlarni; germanlarning romanlashuviga – fransuzlarni, yahudiylarning – turklashuviga karaimlarni, turkiylarning eronlashuviga tatlarni va koʻp boshqa misollarni keltirish mumkin.

Migratsiya jarayonlarining tildagi differentsiatsiya jarayonlarini kuchaytirib yuborishida kuzatiladigan yana bir holatda biror-bir shevada soʻzlashadigan xalq u tilda soʻzlashuvchi boshqa xalqlardan ajralib, izolyatsiya holatiga tushib qoladi va natijada til orollari paydo boʻladi.

Tilning izolyatsiyada rivojlangan shakli boshqa, nisbatan qoʻshnichilikda, kompakt yashayotgan boshqa sheva yoki tillardan boshqacharoq tarakqiyotni boshidan kechiradi. Yaʼni u konservativroq, atrofidagi tillar taʼsirini oʻzida xis etgan dialekt yoki til shaklida namoyon boʻladi. Masalan, ugor-fin oilasining venger tili, turkiy tillardan karaim tili, german tillaridan island tili, yoki afrikaans tillarini misol tarzida keltirishimiz mumkin [Solov'yeva L.N., Arsen'yeva M.G., 1980]

Tillarda sodir boʻladigan oʻzgarishlarda vaqtning, falsafiy kategoriya hisoblangan zamonning ahamiyati kattadir. Falsafa qonunida aytilganidek, har qanday voqea-hodisa (bu oʻrinda tildagi oʻzgarish) muayyan bir makon va zamonda sodir boʻladi. Shunday ekan, tilshunoslarning tilda roʻy bergan oʻzgarishlarning qachon sodir boʻlganini aniqlash, bilish, shunchaki oddiy bir qiziqish boʻlmay, bu narsa oʻrganilayotgan masalaning mohiyatini ochib beruvchi muhim holat boʻlishi mumkin. Masalan, eramizning 450-yili aholisi oʻtroq boʻlgan mamlakatning barcha yerida bitta tilda soʻzlashgan Galliyani olaylik. Oʻsha davrda mamlakat boʻylab bir til – lotin tili asosiy aloqa vositasi boʻlib qolgan, aholi shu tilda soʻzlashgan. Vaqt yoki zamon bu tilga qanday taʼsir koʻrsatishi mumkin va bu nimalarda, qanday namoyon boʻladi?

1. Tilda absolyut harakatsizlik holati hech qachon kuzatilmaydi, chunki malum vaqt oʻtishi bilan bu til oʻziga oʻxshamay qoladi.

2. Tildagi evolyusiya til makonining barcha hududlarida bir xil tezlikda, bir xil koʻrinishda sodir boʻlmaydi. Buning sabablari turlicha. Tilning oʻzi tarqalgan yerlarning barcha joyida bir xil rivojlanganligi hech qayerda kuzatilmagan.

Tilda oxir-oqibatda turli shevalarning paydo bo'lishiga olib keluvchi bu o'ziga xoslikni keltirib chiqaruvchi differentsiatsiya nimadan boshlanadi va qanday rivojlanadi? Buning ikki hil belgisi bor:

1) evolyusiya tilning tabiatidan kelib chiqib, aniqlash, tasvirlash va guruhlash qiyin bo'lmagan alohida til faktlaridan izchil innovatsiyalar shaklida amalga oshadi (Bu faktlar fonetik, leksik, morfologik, sintaktik va shu kabi qatlamlarga tegishli bo'lishi mumkin);

2) bu innovatsiyalarning har biri aniq bir joyda paydo bo'lib, o'z tarqalish zonalariga ega bo'ladi. Innovatsiyalar tarqalgan joy til ishlatilishi makoniga teng kelishi mumkin. Bunday hollarda shevalararo farqlar paydo bo'lmaydi. Innovatsiyalar tarqalishining ikkinchi yo'li shundaki, innovatsiya til makonining faqat ayrim bir qismini o'z ichiga olishi mumkin. Bunda shevaga tegishli har bir unurning o'z mavjudlik zonasi, tarqalish chegarasi paydo bo'ladi.

Yevropada xalqlar buyuk ko'chishidan keyin milliy tillarning paydo bo'lishi va rivojlanishida etnik birlik va til o'rtasida muayyan munosabatlar paydo bo'lishi kuzatildi. Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar umumxalq tilni yaratishga bo'lgan urinish – harakatini paydo qiladi va bu tilda shevalardan yuqori turadigan umumiy belgilar paydo bo'ladi. O'z navbatida, tilning umumiyligi etnik butunlikning yaralishiga olib keladi. Bu narsa tildagi yaqinlikning tabiatini izohlashning yagona va eng to'g'ri yo'lidir. Masalan, O'rta asrlarning boshlarida Yevropa roman etnizmi mavjud edi. Bu roman etnizmi yagona siyosiy-ma'muriy aloqalar bo'lmagani taqdirda ham kelib chiqishi etnik jihatdan turli oila va guruhlariga tegishli bo'lgan xalqlarni birlashtira oldi.

Boshqa tomondan etnik birlik haqida guvohlik beruvchi asosiy omil, bu – til bo'lib, uning bergan guvohligi madaniyat, din, turmush tarzi, urf-odat, hududiy birlikdan ko'ra ishonchliroq va hal qiluvchi omil bo'ladi.

Bu munosabatda muayyan chegaralarda til tarixiy hujjat vazifasini bajarishi mumkin.

Tilning o'zgarmasligi, nisbatan fiksatsiyalanganligi tilga bilvosita aloqador bo'lgan tashqi omillar ta'siri natijasi bo'lib chiqishi mumkin. Agar qandaydir bir tashqi omil, urush, bosqin, inqilob kabi jamiyat hayotidagi turli ijtimoiy fojialar shu davlat hududida yashovchi butun millatga tegishli bo'lsa, u tildagi evolyusiyani tezlashtiradi va til erkin holatga tushib qoladi va o'z tarixiy ildizlari tomonidan belgilab berilgan yo'ldan davom etadi.

Til oilalari, til guruhlari, tillar va shevalar fonetik strukturalarida innovatsiyalarning qabul qilinish tabiati, sabab va mexanizmlari har bir oila, guruh yoki alohida til uchun o'ziga xos bo'lishi bilan bir paytda hammasi uchun xos umumiy belgilar ham borki, ular birgalikda davrlar, hududlar tillari uchun umumiy va o'xshash bo'ladi. Masalan, eramizning II-III asrlarida Yevropada qadimgi irland tili umum hind-yevropa bobo tilining barcha xossalarini o'zida jo etgan til sifatida namoyon bo'lsa, 400 yil keyinroq VIII asrda topilgan yozma yodgorliklar tilida esa boshqa barcha hind-yevropa tillarida uchramaydigan ko'pgina xususiyatlarni ko'ramiz. Bu xususiyatlarni german va roman tillari tarixida ham kuzatish mumkin.

Jamiyat hayotida ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarining qayta ko'rib chiqilishi jamiyat ijtimoiy hayot normalarini qayta o'rganish, shu jumladan, tilning vazifasini qayta belgilash, ko'rib chiqish, baholash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bunday sharoitda ayrim individ tomonidan olib kiritilayotgan innovatsiya kamroq qarshilikka uchraydi va hatto til jamoasi tomonidan yangi ifoda vositasi, nufuzga ega bo'lgan shakl sifatida tez qabul qilinadi. Gap bu yerda yakka shaxslar tomonidan u yoki bu innovatsiyalarni kuzatishga bo'lgan urinishlarning ko'payishi yoki kamayishida emas, balki til jamoasining innovatsiyalarini qabul qilishga qarshiligi kuchayishi yoki kamayishida hamda hokimiyatning an'analardan ustunligi qay darajada ekanligidadir. Bu hol tilda bo'ladigan har bir innovatsiyaning individual xarakterga ega ekanligi va jamiyatdagi fikrini unga salbiy yoki ijobiy munosabatda bo'lishiga qarab, asta-sekin til jamoasining barcha a'zolari tomonidan qabul qilinadi.

Tillar tarixida innovatsiya va konservativ bosqichlar bir-biriga qarama-qarshi turgan til an'analarning qo'shilishi bilan xarakterlanadi. Bunga bir an'ananing ikki oqimi sifatida qarash ham mumkin. Birinchi holatda innovatsiya relikt yoki boshqa tildan so'z qabul qilgan paytda yuz berishi mumkin. Ikkinchi holatda esa innovatsiya arxaizmlarni yangilagan yoki og'zaki so'zlashuv nutqiga mansub so'z yoki shaklini qonuniylashtirilganda kuzatiladi, innovatsiyaning manbai bo'lmish u yoki bu tashqi omillarga murojaat qilish "mahalliy vatanparvarlik" deb nomlanadigan xissiyotining qay darajada rivojlanganligiga bog'liq bo'ladi. Bu hissiyot yuqori darajada rivojlangan tillarda yuqoriroq va tanazzulga yuz tutgan tillar va shevalarda juda bo'sh namoyon bo'ladi. Ba'zan mutlaqo namoyon bo'lmasligi ham mumkin. IV–VIII asrlarda Rim imperiyasi aholisida shu tuyg'u yetishmaganligi bois lotin tili tanazzulga yuz tutdi. Yangi tillar paydo bo'ldi va ularning strukturasida "begona" elementlar keng o'rin oldi.

Xalqlar buyuk ko'chishi natijasida Yevropada german tillari va roman tillari alohida milliy til, ya'ni aniq bir etnik birlik uchun aloqa vositasi bo'lgan umumiy til sifatida shakllangan bo'lsa-da, hali bu tillarni normallashtirgan, ya'ni o'z adabiy yoki talaffuz normalariga ega bo'lgan til deb atab bo'lmasdi.

Demak, Xalqlar buyuk ko'chishi natijasida Yevropada vujudga kelgan german tillari o'z fonetik, grammatik strukturalari va lug'at tarkibiga ega bo'lgan tillar bo'lsa-da, ularning uslubiy pragmatik, sotsiolingvistik va boshqa jihatlari hali rivojlanmagan, aniqrog'i, rivojlanishning dastlabki bosqichida turgan milliy tillar hisoblanar va adabiy norma haqida gapirishga bir oz erta edi.

XULOSA

XX asr oxiri va XXI asr boshlariga kelib xalqlar tarixi, millat, til va ularning tarixi masalasida butunlay yangi qarashlar, nazariyalar yaratildiki, ular hozirgacha mavjud fikrlarga ko'p jihatdan umuman to'g'ri kelmaydi. Bir millat – bir til yoki bir etnonim – bir xalq degan fikrlarning noto'g'ri ekanligi ma'lum bo'ldi. Avvalgi sodda izohlar mohiyatni u qadar to'g'ri ochib bermasligi ko'rinib qoldi.

Yevropada xalqlar buyuk ko'chishidan keyin milliy tillarning paydo bo'lishi va rivojlanishida etnik birlik va til o'rtasida muayyan munosabatlar paydo bo'lishi

kuzatildi. Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar umumxalq tilni yaratishga bo'lgan o'rinish – harakatni paydo qiladi va bu tilda shevalardan yuqori turadigan umumiy belgilar paydo bo'ldi. O'z navbatida tilning umumiyliги etnik butunlikni yaralishiga olib keladi. Bu narsa tildagi yaqinlikning tabiatini izohlashning yagona eng to'g'ri yo'lidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abayev, V.I. (1960). Ob istorizme v opisatel'nom yazykoznanii. V knige, *O sootnoshenii sinkhronnogo analiza i istoricheskogo izucheniya yazykov* (240 s.). Moskva: Nauka.
2. Adzhi, M. (2007). *Yevropa. Tyurki. Velikaya step'*. Moskva: AST.
3. Akhmetyanov, R.G. (1978) *Sravnitel'noye issledovaniye tatarskogo i chuvashskogo yazykov*. Moskva: Nauka.
4. Aytmuratov, D. (1986). *Tyurkskiye etnonimy*. Nukus: Izdatel'stvo Karakalpakstan.
5. Benzing, J. (1986). Das Hunnische. Donaubulgarrische und Wolgabulgarische (sprachrest). V knige, *Zarubezhnaya Tyurkologiya. Drevniye tyurkskiye yazyki i literatury* (Vip. 1) (ss. 11-28). Moskva: Nauka.
6. Bongard-Levin, G.M., & Grantovskiy, E.A. (2001) *Ot skifii do Indii. Drevniye arii. Mify i istoriya*. Sankt Peterburg.
7. Doerfer, G. (1973). Zur Sprache der Hunnen. *Central Asian Journal*, 17(1), 1-50.
8. Gadzhieva, N.Z. (1975). *Problemy tyurkskoy areal'noy lingvistiki*. Moskva: Nauka.
9. Gumboldt, V.fon. (1983). *O sravnitel'nom izuchenii yazykov primenitel'no k razlichnym epokham ikh razvitiya*. Moskva: Progress.
10. Gumilev, L.N. (2004). *Khunnu. Khunny v Kitaye*. Moskva: Ayriss-press.
11. Katsnel'son, S.D. (1972). *Tipologiya yazyka i rechevoye myshleniye*. Leningrad: Nauka.
12. Kuldashev, A.M. (2010). *An introduction to Germanic philology*. Tashkent: Sharq press.
13. Kuldashev, A.M. (2020). *Tilshunoslikda tarixiylik tamoyili*. Toshkent: Yangi Davr.
14. Kuldashev, A.M., & Kuldasheva, Sh.A. (2021). On the nature of changes in Germanic languages under the influence of the Great migration of peoples. *Theoretical & Applied Science*, 04(96), 325-331. <http://www.t-science.org/arkivDOI/2021/04-96/04-96-65.html>
15. Mamatov, A.E. (2004). *Problema normy v yazyke*. Chimkent.
16. Marr, N.Ya. (1935). *Izbrannyye raboty* (Tom 5). Moskva: Gosizdat.
17. Melnikova, Ye.A. (1983). *Skandinavskiy Srednevekovyye istochniki*. Moskva: Nauka.
18. *O'zbekiston xalqlar tarixi*. (1992). O'zbekistan Fanlar Akademiyasi: FAN nashriyoti.
19. Paul, G. (1960). *Printsipy istorii yazyka*. Moskva: Izdatel'stvo inostrannoy literaturi.
20. Pullyblenk, E.D. (1986). Yazyk syunnu. V knige, *Zarubezhnaya tyurkologiya* (Vip. 1). Moskva: Nauka.
21. Raxmonov, N. (1993). *Turk xoqonligi*. Toshkent: Fan.
22. Sergiyevskiy, M.V. (1954). *Vvedeniye v romanskoye yazykoznaniye*. Moskva: Izdatel'stvo literaturi na inostrannom yazyke.
23. Shilov, D.B. (1975). *Severnoye Prichernomor'ye 2000 let nazad*. Moskva: Nauka.
24. Shoniyoov, K. (2001). *O'zbek xalqining shakllanish jarayoni*. Toshkent: Sharq.
25. Sodiqov, A.S. (1979). *Umumiy tilshunoslik*. Toshkent: Oliy maktab.
26. Solovyeva, L.N., Arsenyeva M.G. (1980). *Vvedeniye v germanskuyu filologiyu*. Moskva: Visshaya Shkola.
27. Sosyur, F.de. (1977). *Trudy po yazykoznaniyu*. Moskva: Progress.
28. Suleymanov, U. (2011). *Az i Ya*. Alma-ata.
29. Sumbatzade, A.S. (1990). *Azerbayzhantsy - etnogenez i formirovaniye naroda*. Baku.
30. Tomson, J.O. (1953). *Istoriya drevney geografii*. Moskva: Izdatel'stvo literaturi na inostrannom yazyke.
31. Turon, U. (1995). *Turkiy xalqlar mafkurasi*. Toshkent: Cho'lpon.

32. Vessen, E. (1949). *Skandinavskiy yazyki*. Moskva: Izdatel'stvo literaturi na inostrannom yazyke.
33. Vozgrin, V.Ye. (1992). *Istoricheskiye sud'by krymskikh tatar*. Moskva: Izdatel'stvo Mysl'.
34. Zhirmunskiy, V.M. (1964). *Vvedeniye v sravnitel'no-istoricheskoye izucheniye germanskikh yazykov*. Moskva.

REFERENCES

1. *A history of the peoples of Uzbekistan*. (1992). Academy of Sciences of Uzbekistan: Science Publishing House.
2. Abaev, V.I. (1960). On historicism in descriptive linguistics. In book, *On the relationship between synchronous analysis and the historical study of languages* (240 p.) Moscow: Science Publishing House.
3. Adzhi, M. (2007). *Europe. Turks. Great steppe*. Moscow: AST Publishing House.
4. Akhmetyanov, R.G. (1978) *Comparative study of the Tatar and Chuvash languages*. Moscow: Nauka Publishing House.
5. Aytmuratov, D. (1986). *Turkic ethnonyms*. Nukus: Karakalpakstan Publishing House.
6. Benzing, J. (1986). Das Hunnische. Donaubulgarrische and Wolgabulgarische. In book, *Foreign Turkology. Ancient Turkic languages and literatures* (Vol. 1) (pp. 11-28). Moscow: Nauka Publishers.
7. Bongard-Levin, G.M., Grantovskiy, E.A. (2001). *From Scythia to India. Ancient arians. Myths and history*. Saint Petersburg.
8. Doerfer, G. (1973). *To the language of the Hunnen*. *Central Asian Journal*, 17(1), 1-50.
9. Gadzhiyeva, N.Z. (1975). *The problems of Turkic areal linguistics*. Moscow: Science Publishing House.
10. Gumboldt, V.von. (1983). *Selected papers on linguistics*. Moscow: Progress Publishing House.
11. Gumilev, L.N. (2004). *Khunnu. Hunns in China*. Moscow: Ayris Press.
12. Katsnelson, S.D. (1972). *Typology of the language and verbal mind*. Leningrad: Science Publishing House.
13. Kuldashev, A.M. (2010). *An introduction to Germanic philology*. Tashkent: East Publishing Press House.
14. Kuldashev, A.M. (2020). *Principles of historism in Linguistics*. Tashkent: New Era.
15. Kuldashev, A.M., & Kuldasheva, Sh.A. (2021). On the nature of changes in Germanic languages under the influence of the Great migration of peoples. *Theoretical & Applied Science*, 04(96), 325-331. <http://www.t-science.org/arkivDOI/2021/04-96/04-96-65.html>
16. Mamatov, A.E. (2004) *Problems of language norms*. Chimkent.
17. Marr, N.Ya. (1935). *Selected works* (Tom 5). Moscow: State Publishing House.
18. Melnikova, Ye.A. (1983). *Scandinavian medieval manuscripts*. Moscow: Science Publishing House.
19. Paul, H. (1960). *Principles of the history of language*. Moscow: Foreign Literature Publishing House.
20. Pullyblenk, E.D. (1986). The Xiongnu language. In book, *Foreign Turkology* (Vol. 1). Science Publishing House.
21. Rakhmonov, N. (1993). *Turkic khanates*. Tashkent: Science Publishing House.
22. Saussure, F.de. (1977). *Works on linguistics*. Moscow: Progress Publishing House.
23. Sergiyevskiy, M.V. (1954). *An introduction to Romance linguistics*. Moscow: Foreign Literature Publishing House.
24. Shilov, D.B. (1975). *Northern Black Sea region 2000 years ago*. Moscow: Science Publishing House.
25. Shoniyozov, K. (2001). *Formation of the Uzbek people*. Tashkent: East Publishing Press House.
26. Sadikov, A.S. (1979). *General linguistics*. Tashkent: High School Publishing House.
27. Solovyeva, L.N., & Arsenyeva, M.G. (1980). *An introduction to Germanic philology*.

- Moscow: High School Publishing House.
28. Suleymanov, U. (2011). *Az and Ya*. Alma-ata.
 29. Sumbatzade, A.S. (1990). *Azerbaijanis - ethnogenesis and formation of the people*. Baku.
 30. Tomson, J.O. (1953). *A history of ancient geography*. Moscow: Foreign Literature Publishing House.
 31. Turon, U. (1995). *Ideology of Turkic peoples*. Tashkent: Chulpon Publishing House.
 32. Vessen, E. (1949). *Scandinavian languages*. Moscow: Foreign Literature Publishing House.
 33. Vozgrin, V.Ye. (1992). *Historical fate of the Crimean Tatars*. Moscow: Thought Publishing House.
 34. Zhirmunskiy, V.M. (1964). *Introduction to the comparative historical study of Germanic languages*. Moscow.